

---

## #ONALARGA EHTIROM



Dunyodagi eng muqaddas zot hisoblangan ONAlarga ehtirom va hurmat ko'rsatish, e'zozlash maqsadida o'tkazilayotgan "Onalarga ehtirom" festivali doirasidagi tadbir Kattaboltako'l mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 6-umumiy o'rta ta'lim maktabida ham bo'lib o'tdi.

Mahalla bosqichida bo'lib o'tgan tadbirda turli nominatsiya g'oliblari va ularning yaqinlari qatnashdilar.



Tadbirda tuman hokimining xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchisi M.Mo'ydonova va tuman IIB xotin-kizlar masalalari buyicha katta inspektori D.Vaxobovalar ishtirok etishdi.

Tadbir davomida 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari va 17-MTT muassasa tarbiyalanuvchilari tomonidan onalarga atab she'r, qo'shiq va raqslar ijro etildi.

Festival Nizomi asosida turli nominatsiyalar bo'yicha g'olib deb topilgan onalarga ehtirom ko'rsatilib, ularga esdalik sovg'alari va tashakkurnomalari topshirildi.

**Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.**

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2021-05-20 08:35:14